



2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR OBRAZLILIKNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi

SamDCHTI magistranti

Annotatsiya: Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Ushbu maqola frazeologik birliklarni semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, semantik qurilish, obrazlilik, struktural xususiyatlar.

Annotation: The main focus of phraseology as a branch of linguistics is to study the nature of phraseology and their categorical features, as well as to determine the laws of use of phraseology in speech. This article is devoted to the analysis of the semantic features of phraseological units.

Key words: phraseology, semantic construction, imagery, structural features.

Аннотация: Основным направлением фразеологии как раздела языкознания является изучение природы фразеологизмов и их категориальных признаков, а также определение закономерностей употребления фразеологизмов в речи. Данная статья посвящена анализу семантических свойств фразеологических единиц.

Ключевые слова: фразеология, семантическая конструкция, образность, структурные признаки.





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

Frazeologiyaga mustaqil fan, fan sohasi sifatida qarashni birinchi bo‘lib mashhur rus tilshunosi Y. D .Polivanov olg‘a surdi va bu masalaga ko‘p martalab murojat qildi. Uning ta’kidlashicha, leksika - so‘zlarning o‘ziga xos lugaviy ma’nosini o‘rganadi, morfologiya so‘zlarning shakliy tuzilishini, sintaksis esa so‘z birikmalarining shakliy ma’nosini o‘rganadi.

Shunday ekan, alohida bo‘limga ehtiyoj tug‘ilib, sintaksisga yaqin, lekin ayni paytda so‘z birikmalarining umumiy ma’nosini emas, balki alohida birikmalarning o‘ziga xos ma’nosini o‘ganuvchi, huddi leksika alohida so‘zning ma’nosini o‘rgangani kabi bo‘lim yaratish zarur. Tilshunoslikning bu bo‘limini men frazeologiya deb atayman. Ushbu ma’noni anglatuvchi boshqa atama ham taklif etish mumkin - «idiomatika». A.V.Kunin frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi emas, balki alohida bir fan sifatida o‘rganilishi tarafdorlaridan biri edi. U frazeologizmlarni nutqda qo‘llanilishi jihatidan tahlil qiladi va FB larni ayrim guruhlariga ajratadi. V.V.Vinogradov FB larning motivatsiyasini hisobga olib, uch turga ajratadi. Ular: frazeologik birikma, frazeologik chatishma va frazeologik butunliklardir. B. A. Larin takidlaganidek, frazeologik birliklar har doim odamlarning qarashlari, davrining ijtimoiy tartibi va mafkurasini bilvosita aks ettiradi. Millat madaniyatining uzoq davom etgan semantikasini aks ettiruvchi frazeologik birliklar madaniy munosabat va stereotiplarni, standartlar va arxetiplarni avloddan - avlodga saqlaydi va o‘tkazadi. F.I.Buslayevning so‘zlariga ko‘ra, frazeologik birliklar o‘ziga xos mikroolamdir. Ular "avlodlarga ota - bobolari ishonib topshirgan qisqa so‘z bilan ifoda etilgan axloqiy qonunni ham, sog‘lom fikrni" ham o‘z ichiga oladi. Bu har qanday milliy tilning ruhidir, unda millatning ruhi va o‘ziga xosligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Frazeologik





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

birikmalar asosan soʻzlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi boʻlib, tuzilishiga koʻra erkin bogʻlanma yoki gapga teng, toʻliq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turgʻun soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy taʼsirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ixcham, maʼno jihatdan salmoqli til birligi boʻlib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda soʻzlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va taʼsirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarini tashqi shaklga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda koʻproq frazeologik iboralarning tarkibidagi soʻzlar soniga qarab eʼtibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga koʻra nechta soʻzdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Koʻpgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki soʻzdan ortiq boʻladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq soʻzlardan iborat boʻladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir soʻzdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha bir soʻzdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil boʻladi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning koʻpchiligi maʼlum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari oʻrtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq soʻzlardan





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazelogizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazelogizmlar so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa ular nutq birligi bo'lgan gaplardan farq qiladi. Ular lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. Frazelogik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o'rtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazelogizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazelogizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazelogizmlar so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa ular nutq birligi bo'lgan gaplardan farq qiladi. Ular lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. Frazelogiyaning obyektini belgilashda turli xil farazlar mavjud. Frazelogiyaning obyektini faqat turg'un birikmalar tashkil qiladi. Frazelogiya fani frazeologik birliklarni ma'noviy struktural xususiyatlarini tadqiq qiluvchi, ularning til sistemasida paydo bo'lishi va nuqtda ishlatish xususiyatlarini o'rganuvchi fan deb ta'riflangan. Frazelogiya til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yaqqol tushuntiruvchi tilshunoslik bilimlarining eng yuqori cho'qqisidir. Frazelogiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peestp:1070589>

shakllanib bo‘ldi. Undagi ko‘plab muammolar hali o‘z yechimini kutayotgan bo‘lsada, hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кунин А. В. Английская фразеология. -М.: Изд. Высшая школа, 1970.
2. Виноградов В. Основные типы лексикологических значений слова//Избр. Труды. - м.: Наука.
3. Поливанов Е. Д. Русский язык сегодняшнего дня. - М. -Л., 1928 (б). - Кн. 4. -С. 144.
4. Востоков А. Х. Русская грамматика по начертанию его же сокращенной грамматики. - СПб. - 1835.
5. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. - Изд. Ленинградского университета. - Л., 1961.
6. Maslova V.A. Lingvokul'turologiya. 2-ye izdaniye. - М .: Academia, 2004. - 204 с.
7. Maslova V.A. Lingokul'turologicheskoye issledovaniye: Ucheb. dlya stud. untov. - М .: Akademiya, 2010.
8. Buslayev F.I. Russkiye poslovitsy i pogovorki, sobrannyye i obyasnennyye. -М., 1954.

